

Muqimiy jasorati avlodlar qalbida

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

BR-61, 2-bosqich talabasi

Firdavs Kazakov Farxod o'g'li

Firdavskazakov007@gmail.com

Annotatsiya: Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodini o'rGANISH uning hayotlik chog'idan boshlangan. Ushbu maqolada H.Yoqubovning "O'zbek shoiri Muqimiy", A.Olimjonovning "Muhammad Amin Muqimiy", H.Zaripovning "Muhammad Amin Muqimiy", H.Razzoqovning "Muqimiy va Zavqiy" nomli kitoblari hamda "Furqat va Muqimiy" nomli maqolalar to'plami nashr etilgan. Ushbu maqolada mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi adabiyot darsliklarida Muqimiy hayoti va faoliyatining o'rGANILISHI yoritilgan. Bundan tashqari Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning ijodiga bo'lgan mehri va vatanga sadoqati aks ettirilgan. Bugungin kundagi yoshlarga nisbatan motivatsion xulosa bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Tahallus, sheriat, joziba, bardoshlilik, ulkan salohiyat, realizm, hajviyot, iqtidor, ijodkor, adolat.

Muqimiy garchi nonvoylar oilasida dunyoga kelgan bo'lsada, she'riyatga adabiyotga qiziqlishi yuqori bo'lган. Uning deyarli barcha asarlari realizm ya'ni haqiqiylikka asoslangan hisoblanadi. Muqimiyning onasi Oyshabibi ajoyib ta'limga ega, og'zaki ijodni juda yaxshi bilgan iqtidorli shoira bo'lgan. Aynan shu ayol tufayli Muqimiyyda shoirona iqtidor rivojlanadi, ayol o'g'lini Alisher Navoiy, Hofiz Jomiy kabi ijodkorlar qiyofasida sharq mumtoz adabiyoti bilan tanishtiradi va umrining oxiriga qadar ularga bo'lgan muhabbati saqlanib qoladi. O'zining birinchi she'rini o'n yoshida yozadi.[1] Muqimiyning onasiga bo'lgan mehri cheksiz bo'lgan va 1865 yil Muqimiyga ma'nan va minnatsiz ko'mak

berib turuvchi onasi dunyoni tark etdi. Natijada, Muqimiyning she'rlarida erta hayotdan ko'z yumgan onasiga nisbatan motam soyasi seziladi. Yoshligidan she'riyatga qiziqishi ulkan bo'lganligi sababli, u ijod yo'lini tanlaydi. Shuningdek, xalqning yashash tarzi, ularga bo'lganadolat to'g'risida asar va she'rlar yozgan. Uning deyarli barcha asarlariadolat to'g'ri yo'lga boshlash yo'lida bo'lgan. Otasining o'limidan so'ng Muqimiyning qaramog'ida qolgan oilasiga yordam berish uchun Toshkentga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi. Shoirning Toshkentdagi qisqa muddati u uchun foydali, barakali tus olib, uning dunyoqarashi kegayishiga, qat'iyat va muahoratining mukammallashuviga ta'sir ko'rsatadi. [2]

Muqimiy moddiy emas, balki ma'naviy boy bo'lgan insonlardan biri bo'lgan. Agar uning shaxsiy hayot yo'liga e'tibor qaratilsa, undan o'rnak bo'la oladigan hayot tarzini o'rganish mumkin. Muqimiy asarlarini o'rganish asosida shu davrda mamlakatdagi iqtisodiy holatni kuzatish va tahlil qilish mumkin. Asarlarni o'rganish asosida xatto bugungi kunda ham amaliyotga qo'llash mumkin bo'lgan iqtisodiy jihatlarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari Muqimiy asarlarida rahbarlarni shaxsiyati va ulardan xalq talab qilayotgan muhim omillarni keltirib o'tgan. Bu davr og'ir davr bo'lishiga qaramasdan, Muqimiy o'z asarlarida qo'rvu hissalarini yo'qotgan holda boshqaruva tizimi va mamlakatda soliq tizimini juda kuchli tanqid qila olgan. Bundan tashqari, asarlardan shu davrda mamlakatning geografik holati va hududlarni ijtimoiy holatini o'rganish mumkin. Aholi turmush darajasi ham asarlarda keltirilib o'tilgan. Shundan kelib chiqqan holda Muqimiy ijoni o'raganish va uning keng ommaga targ'ib qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.[3]

Ma'lumki, o'zbek buyuk adiblarimizning bizga qoldirib ketgan nodir ma'naviy boyliklardan bahramand bo'lish, har bir tarixiy davr ruhini bilish, xalqimizning turmush tarzi, shu davrga xos ijtimoiy munosabatlar ko'proq adib orqali kitobxonlar qalbiga yetib boradi. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir. Ravshanki, biografik ma'lumotlar o'z mazmuni bilan yoshlarni milliy

ma’naviyatimizni anglash, his etish ruhida tarbiyalashda o’ziga xos o’rin tutadi [4]. Masalan, Muqimiy haqida gapirib turib, Nikolay Ostroumov o’z maqolasida uning shaxsiga baho berib shunday degan edi: Shoirni o’quvchiga qalandarsifat, darveshvash bir qiyofada taqdim etadi va asosiy mashg’ulotini taqvo va she’r yozishda zamondoshlari singari zullisonayn edi...”- deb ko’rsatadi.

N. Mallayev, G’.K.Karimov, S.Ismatov tomonidan 1982-yilda nashr etilgan 8- sinflar uchun mo’ljallangan darslikda Muqimiy hayoti va ijodi haqida quyidagilarga guvoh bo’lamiz. Muqimiy demokratik adabiyotning eng yirik vakillaridan biri ekanligi, hajvchilik oqimining boshida turganligi, kambag’al hunarmand- novvoy oilasida tug’ilganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Muqimiy 1876 yillarda Buxorodan Qo’qonga qaytdi. Lekin Qo’qonning hukmron doiralari madrasa ta’limini tugallab kelgan shoirni ochiq chehra bilan kutib olmadi, uni durustroq bir lavozimga taklif qilmadi. Natijada Muqimiy oilaviy sharoit taqozosi bilan Qo’qon yer qurilishi mahkamasida mirzolik (kotiblik) vazifasida xizmat qilishga majbur bo’lgan. Muqimiyning Qo’qon yer qurilishi mahkamasidagi xizmati uning hayotida chuqur iz qoldirdi. Mahkama amaldorlari tanobchilar yig’im- terimdan oldin dehqonlar yerini o’lchagani, ya’ni tanob qilgani qishloqlarga chiqar va shunga qarab dehqonlarga yer solig’i solar edi. Muqimiy ham mahkama mirzosi sifatida tanobchilar bilan birga bo’lar va qishloqlarda ro’y bergen voqealarni o’z ko’zi bilan ko’rar edi. Ma’lumki, shu hayotiy kuzatishlari va taassurotlari asosida Muqimiy o’zining mashhur “Tanobchilar” asarini yaratdi. [5]

Taqsinga sazovor, ibratli hayot yo‘liga ega bo‘lgan, ma’lum davrda jamiyatning shakllanishiga o’zining katta hissani qo’sha olgan va xalqning qalbida chukur joy olgan adiblardan biri Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyydir. Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy buyuk adiblardan biri bo‘lib, ibratli hayot yo‘lini bosib o’tgan.[6] U o’z asarlarida nafaqat badiiy talqinni yuzaga keltirgan, balki bugungi kun avlodi uchun o’rnak bo‘la oladigan iqtisodiy qarashlarni va davlat boshqaruvi to‘g‘risida o’z fiklarini bildirgan. Muqimiy moddiy emas, balki ma’naviy boy bo‘lgan insonlardan biri bo‘lgan. Agar uning shaxsiy hayot

yo‘liga e’tibor qaratilsa, undan o‘rnak bo‘la oladigan hayot tarzini o‘rganish mumkin. Muqimiy asarlarini o‘rganish asosida shu davrda mamlakatdagi iqtisodiy holatni kuzatish va tahlil qilish mumkin. Asarlarni o‘rganish asosida xatto bugungi kunda ham amaliyotga qo‘llash mumkin bo‘gan iqtisodiy jihatlarni ko‘rish mumkin. Bundan tashqari Muqimiy asarlarida rahbarlarni shaxsiyati va ulardan xalq talab qilayotgan muhim omillarni keltirib o‘tgan. Bu davr og‘ir davr bo‘lishiga qaramasdan, Muqimiy o‘z asarlarida qo‘rqmasdan boshqaruv tizimi va mamlakatda soliq tizimini juda kuchli tanqid qila olgan. Bundan tashqari asarlardan shu davrda mamlakatning geografik holati va hududlarni ijtimoiy holatini o‘rganish mumkin. Aholi turmush darajasi ham asarlarda keltirilib o‘tilgan. Shundan kelib chiqqan holda Muqimiy ijoni o‘raganish va uning keng ommaga targ‘ib qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.[7]

Muqimiyning “Tanobchilar” asarida shu davr soliq tizimi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, Muqimiy o‘z davrida iqtisodiy hayotga befarq bo‘lmaqanligini sezish mumkin. Bu asar asosan shu davrdagi soliq tizimi va uning kamchiliklari haqida to‘liq ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, bu davrda soliq bevosita inson omili aralashuvi bilan bo‘lganligi uchun turli kamchilik va muammolar paydo bo‘lgan. Bu asar asosan Muqimiy yashab o‘tgan davrning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda xalqning soliqlardan noroziligi va soliqlar yig‘ishda turli ko‘zbo‘yamachiliklar sodir etilishi haqida aytib o‘tilgan. Bu asarda ikkita soliqchining bir qishloqda soliq yig‘ish faoliyati tahlil qilinib, undan xulosalar chiqarilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Muhammad Aminxo’ja Muqimiy buyuk shoir bo‘lgan. Bolilalik chog’laridanoq onasi tomonidan to’g’ri tarbiya olganligi sababli ilm sohasiga o‘z jonini fido qilgan. Bunday shaxslar hayotda kamdan kam uchraydi. Adolat yo‘li uchun hech qachon tinmagan Muqimiy faqirona hayot kechirgan. Mustaqillik yillaridan so’ng Muhammad Aminxo’ja Muqimiy hayoti va ijodi ko‘plab olimlar tomonidan keng o‘rganishlar hamda izlanishlar olib borildi. Undan tashqari Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida

ham talabalar Muqimiy hayoti va ijodini keng miqqosda o’rganib, tadqiqotlar olib bormoqda. Muqimiyning eng sara jumlasidan biri „Kelur seni ham oxir yo’qlagudek bir zamon yaxshi” deya aytilgan jumlesi albatta barchani e’tiborini qaratdi. Vaholanki, oradan necha yillar o’tmasin, biz Muqimiy bobomizni yana xotirlamoqdamiz.

Bugungi tinib tinchimas yoshlar vatan taraqqiyotiga albatta Muqimiy singari o’z hissasini qo’sha oladi deya umid qilamiz. Buning uchun yutboshimiz tomonidan bir qancha imkoniyatlar ham muhayyo, bizdan esa faqatgina o’qish, izlanish, tajribada qo’llash va yurt taraqqiyotiga o’z hissamizni qo’shishimiz qoladi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Muqimiy asarlarida aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tasviri” Avazov Nuriddin Rustam o‘g‘li 2021
2. „Muqimiy satiralaridagi mazmun va mohiyatlarining tasnifi” Mamayusupova Shahina Ulug’bek qizi 2023
3. „Muhammad Aminxo’ja Muqimiy hayoti va faoliyatining o’rganilishi” Hasanov Husniddin Kamol o’g’li 2021
4. Saydullayeva Muazzamxon. Bitiruv malakaviy ish. “ Yozuvchi hayoti va ijodini o’rganishda savol va topshiriqlarning o’rni” T. 2018
5. Til va adabiyot ta’limi jurnali, 2015-yil,9-son
6. O.Karimov. Muqimiy ijodi klaster tahlilda
7. N. Karimov, B .Nazorov, U, Narmatov , Q. Yo’ldashev. Adabiyot darslik. Toshkent 2004-yil
8. Q. Pardayev. Oltin bitiglar. 2019 Vol.1. www.navoiy-uni .uz. 23-bet 8
9. Po’latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.